

Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

		“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi	
№	Innovatsion loyiha mavzusi		Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Xiva va Bog‘ot tumanlarining turistik resurslarini innovatsion yondashuv asosida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish  		Tadqiqotning shakli: Innovatsion. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - hududlardagi tarixiy-madaniy va ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan turistik obyektlar aniqlanadi va o‘rganiladi; - aniqlangan obyektlar to‘g‘risida ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash asosida hududlardagi turistik obyektlarni yoritib beruvchi media kontentlar (foto, video), flayerlar, turistik kataloglar shakllantiriladi; - hududlarning turistik salohiyatini oshirishga oid marketing tadqiqotlarini amalga oshirish orqali hududlarga tashrif buyuruvchi turistlarni bozor segmentlariga ajratiladi; - hududlar turistik infratuzilmasini o‘rganish va yaxshilash yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi; - Xiva va Bog‘ot tumanlari turistik obyektlaridan foydalangan holda 5 ta tur-marshrut va 7 ta tur-paket shakllantiriladi; - Xorazm viloyatining Xiva va Bog‘ot tumanlaridagi “Google map” platformasiga kiritilmagan turistik obyektlari platformaga kiritiladi; - Xorazm viloyatining turistik gastronomik xaritasi ishlab chiqiladi; - “Turizm tadqiqotlari va konsalting” markazini shakllantirish orqali mintaqadagi turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, mutaxassislar va barcha manfaatdor tomonlarga konsalting xizmatlarini ko‘rsatishni imkoniyati yaratiladi; - Xiva va Bog‘ot tumanlarining turistik resurslarini innovatsion yondashuv asosida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Turizm qo‘mitasi hamda Xorazm viloyati hokimligida sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Turizm qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.